

MUSTAQILLIK YILLARIDA AGRAR ISLOHOTLAR*Eraliyev Samandar Sarvarbek o'g'li**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)**Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li**(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistondagi ilk mustaqillik davridagi agrar sohadagi vaziyat va ushbu yillaridagi islohotlar. Istiqlol yillarida shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining soni va ko'lami yildan-yilga o'sib borganligi, buning oqibatida qishloq aholisi ish bilan ta'minlanib, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish ko'payganligi, alal-oqibat mamlakatimiz o'zini-o'zi qisman qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga erishganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, sovxoz va kolxozlar shirkat xo'jaliklari, oziq-ovqat va sanoat, tomorqa xo'jaligi, Qishloq xo'jaligi kooperativi, shirkat xo'jaligi, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: In this article, the situation in the agrarian sector in the period of the first independence of Uzbekistan and the reforms during these years. During the years of independence, the number and scale of private farms grew year by year, as a result of which the rural population was provided with work and the production of agricultural products increased. It is said that the country has achieved partial supply of agricultural and food products.

Key words: agriculture, state and collective farms, cooperative farms, food and industry, forestry, agricultural cooperatives, cooperative farms, economic reforms.

Mustaqillikning ilk yillari qishloq xo'jaligi sohasida chuqur islohotlar amalga oshirish davri boshlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrga qishloq xo'jaligining intensiv rivojlantirishning boshlanishi sifatida qarash bo'ladi. Aynan qishloq xo'jaligi mamlakat valyuta resurslarining asosiy manbai hisoblangan. Mamlakatda xo'jalik yuritish va mulkchilikning o'nga yaqin turi amalda bo'lsada, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), dehqon va fermer xo'jaliklari kabi shakllari asosiy xo'jalik shakli sifatida qaror topgan. Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarning dastlabki vaqtida sovxoz va kolxozlar shirkat xo'jaliklarga aylantirildi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat), fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat shakllaridan keng foydalanildi. Ushbu yillarda Respublikada qishloq xo'jaligi sohasiga bozor tamoyillarini joriy qilish va mulkchilik shakllarini to'liq o'zgartirish bilan tub

islohotlar o'tkazildi, natijada xo'jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo'lib, ular qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishida o'z aksini topdi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirish doirasida o'tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so'nggi yillarda sohada yuqori sur'atlarga erishildi. Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi o'zgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligi hamda xayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning Ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib, aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan taminlashni yaxshilabgina qolmay, respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin.

Chor Rossiyasi davrida qishloq aholisi tomarqa xo'jaligiga ega bo'lgan bo'lsada, uning hajmi kam bo'lgan. 1989-1990 yillarda qishloq xo'jaligini inqirozdan olib chiqish maqsadida tomarqa yerlarini ko'paytirish siyosati olib borilgan. Ammo ishlar pala-partish tashkil qilinishi oqibatida yer taqsimoti muvozanati buzilgan. Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston SSR Prezidenti I.Karimovning 1991-yil 11-yanvarda "Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari va qishloq joylarida yashovchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmoni aynan yangi mulk shakllarini rivojlantirishga xizmat qildi. Farmonga binoan paxta ekiladigan maydonlarning bir qismi shaxsiy tomarqa xo'jaligi uchun ajratildi. Qishloq joylarida yashovchi oilalarning yangi tomarqa uchastkalariga yoki o'zlarida bo'lgan tomarqa uchastkalarini kengaytirishga muhtojlari aniqlandi. Shaxsiy tomarqa xo'jaliklarning yer maydoni sezilarli darajada ko'paydi. unday turdagi mulk shaklining ko'payishi hisobiga 700 mingdan ortiq kishi faol mehnatga jalb qilingan [2]. Natijada 1990-yilda jami yer maydonlari 0,1%ni egallagan shaxsiy tomarqa xo'jaligi 1992-yilda 0,4%ga, 1994-yilda 2,1% ga qadar o'sdi. Bundan ko'zlangan maqsad qishloq hududlarida yig'ilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal etish, aholiga amaliy yordam berish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish va o'zini o'zi ta'minlash maqsadi ko'zda tutildi. Shu tariqa qishloq xo'jaligiga bozor mexanizmlari olib kirildi, buning natijasida ko'p tarmoqli iqtisodiyot vujudga keltirildi.

Respublikamizda mustaqillikning birinchi yillarida shirkat xo'jaliklarini tashkil etishning ikkinchi muhim omili ijtimoiy sohaga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, u xo'jalik yuritish shakli sifatida o'tish davri talablariga to'la mos keladi. Unda mulkchilikning xususiy va umumiylik xususiyatlari mujassamlashgan. Respublikamizda 1996 yilda 26 ta jamoa xo'jaligini yopiq turdagi qishloq xo'jaligi

aksiyadorlik jamoalariga aylantirish va ular faoliyatini bozor munosabatlari doirasida amalga oshirish hamda ular bo'yicha o'tkazilgan tajribadan keyin 1998-yilda —"Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risi"dagi qonun va —"Qishloq xo'jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) tuzish choratadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 299-sonli qarori qabul qilingandan so'ng, faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaliklari sifatida qayta tashkil etila boshlandi.

Qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish va shirkat xo'jaliklarini rivojlantirish nuqtai nazaridan respublikamiz iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh olimlar tomonidan tayyorlangan mulkiy pay ulushi asosida qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1998-yil 18-martda " 1998-2000-yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida" dastur qabul qilindi. Dasturda agrar sohadagi iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar)ni shakllantirish, mulkiy paylar va oilaviy pudrat tizimini joriy etish asosida qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, tuproq unumdorligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, raqobatbardosh qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga oid ushbu dasturning bajarilishini nazorat qiluvchi Respublika komissiyasi tuzildi. Respublika komissiyasi har chorakda dastur qanday bajarilayotganligi yakunlarini chiqarib, uning natijalari to'g'risida respublika hukumatiga ma'lum qilib borilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 10-dekabr 2017-yil.
2. Sima E. (2012). Ecological Agriculture and Changing Perception in the Case of Quantity and Quality. The Information and Economic Reference Material Center. Bucharest.
3. B.Yo'ldosheva "MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO'JALIGINING RIVOJLANISHI" International Journal of Economy and Innovation
4. Sh.Mamajonov."QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNI KLASTERLASHNI TAKOMILLASHTIRISH"
5. Mirjonovna, Y. B. (2021). Cho'l shamollarining Buxoro shahar tarixida tutgan o'rni. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
6. Qishloq xo'jaligi akademiyasi huzuridagi Bozor islohotlari instituti ma'lumotlari (1990-1995 yillar)
7. <https://www.amerikaovozi.com/a/5220890.html>